



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 61 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	



SUN'IY INTELEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI

Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya

(19.00.05) ixtisosligi, 1-bosqich tayanch doktoranti

Email: avazbekdomla93@gmail.com

ORCID: 0009-0008-1890-0505

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt vositalari hamda ularning yoshlar psixologik holatiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy-statistik asosda tahlil qilingan. Maqsad – raqamli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida yoshlarning psixologik barqarorligi, kognitiv, emotsional va motivatsion xususiyatlaridagi o'zgarishlarni aniqlashdir. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektdan ortiqcha foydalanish yoshlarning hissiy barqarorligi, o'qish motivatsiyasi va ijtimoiy muloqot ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, eng yuqori salbiy ta'sir motivatsion-axloqiy (75%) va emotsional (72%) sohalarida kuzatilgan. Shu bilan birga, yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyati hamda shaxsiy identitet rivojida muayyan pasayish qayd etilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, yoshlar psixologiyasi, psixologik barqarorlik, kognitiv jarayonlar, emotsional holat, motivatsiya, axloqiy qadriyatlar, empatiya, mustaqil fikrlash, statistik tahlil.

Abstract: This article provides a scientific and statistical analysis of the impact of artificial intelligence tools on the psychological state of young people. The aim is to identify changes in psychological stability, cognitive, emotional, and motivational characteristics of youth while using digital technologies, particularly artificial intelligence. The findings indicate that excessive use of artificial intelligence negatively affects emotional stability, learning motivation, and social communication skills of young individuals. Statistical data show that the most significant negative impacts are observed in the motivational-moral (75%) and emotional (72%) domains. Moreover, a decrease in independent thinking ability and the development of personal identity has also been recorded.

Key words: artificial intelligence, youth psychology, psychological stability, cognitive processes, emotional state, motivation, moral values, empathy, independent thinking, statistical analysis.

Аннотация: В данной статье представлен научно-статистический анализ воздействия инструментов искусственного интеллекта на психологическое состояние молодежи. Цель исследования – выявить изменения в психологической устойчивости, когнитивных, эмоциональных и мотивационных характеристиках молодежи в процессе использования цифровых технологий, в частности искусственного интеллекта. Полученные результаты показывают, что чрезмерное использование искусственного интеллекта отрицательно влияет на эмоциональную устойчивость, учебную мотивацию и коммуникативные навыки молодежи. Согласно статистическим данным, наибольшее негативное влияние наблюдается в мотивационно-нравственной (75%) и эмоциональной (72%) сферах. Кроме того, зафиксировано снижение способности к самостоятельному мышлению и развитию личностной идентичности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, психология молодежи, психологическая устойчивость, когнитивные процессы, эмоциональное состояние, мотивация, нравственные ценности, эмпатия, самостоятельное мышление, статистический анализ.



KIRISH

Hozirgi kunda insonlarning hayotini sun'iy intellekt vositalari ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Haqiqatdan ham ish jarayonimizda, ta'lim olishimizda, deyarli hayotimizning barcha sohalarida AI (Artificial Intelligence) dan keng foydalanib kelmoqdamiz. Savol tug'iladi: AI (Artificial Intelligence), ya'ni sun'iy intellekt o'zi nima? U qachon va qayerda paydo bo'lgan? Shuning uchun ham dastlab sun'iy intellektning kelib chiqishi haqida biroz to'xtalsak. Sun'iy intellekt (AI – Artificial Intelligence) tushunchasi ilk bor 1956–yil AQShning Nyu-Gempshir shtatidagi Dartmut kollejida o'tkazilgan mashhur Dartmut konferensiyasida ilmiy atama sifatida rasman yaratilgan.

Dastlabki g'oya sifatida 1950–yilda matematik va mantiqshunos olim Alan Turing “Computing Machinery and Intelligence” nomli maqolasida mashinalar o'ylay oladimi, degan savol qo'yadi va “Turing testi”ni taklif qiladi. Shundan keyin elektron kompyuterlar paydo bo'lib, inson tafakkurini mashinalar yordamida modellashtirish g'oyasi kuchaydi. Sun'iy intellekt atamasi Dartmut konferensiyasida olimlar Jon Makkarti, Marvin Minski, Allen Nyuell va Herbert Saymon tomonidan Artificial Intelligence (AI – Artificial Intelligence) ilmiy atamasi sifatida ilk marotaba ishlatiladi. Shu sababdan ham 1956–yil sun'iy intellektning “tug'ilgan yili” sifatida tan olinadi.

Sun'iy intellektning keyingi davr rivojlanishi ekspert tizimlar, mantiqiy dasturlash va robototexnika bilan bog'liq bo'ldi. XX asrning oxiri va XXI asr kelib esa, mashinaviy o'qitish va neyro tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va yordamchi turlari rivojlandi. Ya'ni AI (Artificial Intelligence) dastlab ilmiy tajriba shaklida boshlangan bo'lsa-da, keyinchalik barcha sohalarida qo'llanila boshlandi.

Misol uchun:

Shaxmat o'yinlarida (1956–1960-yillar)

Matematik teoremlarni isbotlovchi dasturlar (Newell va Simon)

Chatbot – ELIZA (Jozef Vayzenbaum)

Internetdagi qidiruv tizimlarida (Google, Yahoo)

Internet reklama tizimlarida

Ovozli yordamchilar va boshqalar

Qolaversa, amaliy sohalarida, ya'ni tibbiyot, sanoat va moliyada ham AI (Artificial Intelligence)dan foydalanilmoqda.

Soha – Qo'llanilishi

Tibbiyot – kasalliklarni aniqlash, rentgen tahlili, genetik diagnostika, kasalliklarni erta va yuqori aniqlikda tashxis qo'yish (DENDRAL).

Ta'lim – onlayn o'quv tizimlari, shaxsiy o'qituvchi dasturlar (Duolingo).

Transport – avtopilot (Tesla), yo'l harakati tahlili.

Moliya – bank xizmatlari, firibgarlikni aniqlash.

Savdo va marketing – mijoz tahlili, tavsiya tizimlari (Amazon, Netflix).

Xavfsizlik – yuzni tanish va kuzatish tizimlari.

Ijod va media – matn, rasmlarni tahlil qilish, qayta ishlash, muqobil video va matn yaratish (DALL·E, Midjourney).

Yuqoridagilar sun'iy intellektning qisqacha va keng qo'llanilayotgan sohaları hamda turlari hisoblanadi. Xususan, boshqa insonlar singari yoshlar toifasi ham AI (Artificial Intelligence)dan doimiy foydalanmoqda.

Savol tug'iladi: yoshlar sun'iy intellektning asosan qaysi turlaridan foydalanmoqda va AI (Artificial Intelligence) ularning psixologik rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

Hozirgi kunda yoshlarimiz orasida AI (Artificial Intelligence)ning quyidagi shakllaridan foydalanish ommaviy tusga ega:

ChatGPT, Google, Claude – savol-javob, o'quv topshiriqlarini bajarish, esse yozish.

Grammarly, QuillBot – matnni tahrirlash, grammatik xatolarni to'g'rilash.

Voice Assistant: Google Assistant – ovoz orqali muloqot qilish.

DALL·E, Midjourney – rasm chizish va dizayn yaratish.

Soundful, Suno, Udio – musiqalar yaratish.

Runway ML, Pika Labs – video tahrirlash va generatsiya qilish.

Spotify – musiqalarni didga qarab tanlash.

Khan Academy – ilmiy ma'lumotlar va kurslarni taklif qilish.

CapCut – suratlarini avtomatik tahrirlash.

FIFA, GTA – o'yinlarda raqiblarni AI tomonidan boshqarish.

Duolingo, Khanmigo – til o'rganish uchun.

Umumlashtiradigan bo'lsak, yoshlarimiz bugungi hayotda AI (Artificial Intelligence)dan til o'rganish, ta'lim olish, matn, rasm va video kontent yaratish, shuningdek, ma'lumotlarni tezroq qidirib topish maqsadida foydalanmoqda. Bu, albatta, ijobiy hol, biroq shuni unutmasligimiz kerakki, tanganing ikki tomoni bo'ladi.

Demoqchimanki, sun'iy intellekt hayotimizni va ishlarimizni osonlashtiradi, ammo bu uning umuman zararsizligini anglatmaydi. Xo'sh, AI (Artificial Intelligence) yoshlarimizning qaysi psixologik xususiyatlariga ko'proq ta'sir qilmoqda?

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Birinchidan, kognitiv (bilish jarayonlari) sohasida mustaqil fikrlashning susayishi, diqqatning pasayishi va tanqidiy tahlilga e'tibor kamayishi kuzatildi. Yoshlar ko'pincha ChatGPT yoki Google'dan tayyor javob olishni afzal ko'radi, o'zi mustaqil tahlil qilmaydi. Ushbu jarayonni aniqlash uchun so'rovnoma (fikir-munosabatni aniqlash), kuzatish usullari hamda kognitiv testlar (diqqat, xotira, fikrlash darajasi)dan foydalanildi.

Ikkinchidan, emotsional (hissiy holat) sohasida stress va tashvishning kuchayishi, yolg'izlik hissining ortishi hamda hissiy barqarorlikning buzilishi qayd etildi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi "ideal hayot" tasvirlari yoshlarni o'zini past baholashga olib keladi. Buni o'rganish uchun psixologik testlar (Bek shkalasi, Shpilberger anketasi), intervyu va emotsional barqarorlik diagnostikasi qo'llanildi.

Uchinchidan, ijtimoiy-psixologik sohada real muloqotdan chetlashish, empatiyaning pasayishi va guruh ta'siriga tez berilish holatlari kuzatildi. Yoshlar trendga ergashib, mustaqil fikr bildirishdan qochadi. Ushbu holatni aniqlashda sotsiometrik tahlil, rol o'yinlari (muloqot malakasini baholash) va ijtimoiy faollik so'rovnoma (Rean va Yakunin) hamda suhbat-tajriba metodlari foydalanildi.

To'rtinchidan, shaxsiy rivojlanish sohasida o'ziga baho berishning buzilishi va qaror qabul qilishda mustaqillikning yo'qolishi kuzatildi. Masalan, yoshlar kasb tanlashda o'z qobiliyatlariga emas, balki sun'iy intellekt tavsiyalariga tayanmoqda. Buni aniqlash uchun o'zini-o'zi baholash testi (Kuer-Smit), L. S. Vygotskiy metodlari hamda qiyosiy tahlil (Al'dan foydalanmaganlar bilan solishtirish)dan foydalanildi.

Beshinchidan, motivatsion-axloqiy sohada mehnatsevarlikning pasayishi va bilim olishga qiziqishning kamayishi qayd etildi. "Al baribir yechadi" degan qarash natijasida o'quv motivatsiyasi sezilarli darajada sustlashmoqda. Bu jarayonni o'rganish uchun motivatsion so'rovnoma (Rean va Yakunin) hamda suhbat-tajriba metodlari (motivatsiyani rag'batlantirish orqali)dan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sun'iy intellektning yoshlar psixologik barqarorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida 16–30 yosh oralig'idagi insonlar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi holatlar aniqlandi.

Birinchidan, kognitiv (bilish jarayonlari) sohasida salbiy ta'sir darajasi 68% ni tashkil etdi. 100 nafar ishtirokchidan 68 nafari diqqat, xotira va fikrlash darajasida pasayish kuzatilganini bildirgan.

Ikkinchidan, emotsional (hissiy holat) sohasida 72% ishtirokchilar (72 nafar) hissiy beqarorlik, stress va yolg'izlik hissining kuchayganini qayd etgan.

Uchinchidan, ijtimoiy-psixologik sohada 64% (64 nafar) respondentlarda muloqotda passivlik kuzatilgan.

To'rtinchidan, shaxsiy rivojlanish bo'yicha 59% (59 nafar) ishtirokchi mustaqillikning yo'qolganini ta'kidlagan.

Beshinchidan, motivatsion-axloqiy sohada eng yuqori ko'rsatkich qayd etilib, 75% (75 nafar) respondentlarda o'quv motivatsiyasining pasayishi kuzatilgan.

Umumiy hisobda, o'rtacha ko'rsatkich shuni anglatadiki, sun'iy intellektidan ortiqcha foydalanish yoshlarning qariyb uchdan ikki qismida salbiy psixologik ta'sir ko'rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida o'tkazilgan so'rovnoma va uning tahlili shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt vositalarining keng qo'llanilishi yoshlarning psixologik holatiga ikki yo'nalishda ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomondan ularning tafakkuri va o'quv jarayonini yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, psixologik barqarorlik hamda shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir etmoqda. Shunday ekan, yoshlar orasida sun'iy intellekt vositalaridan ongli, me'yorida va, albatta, maqsadga muvofiq foydalanish madaniyatini rivojlantirish zarurdir.

Shuningdek, sun'iy intellekt vositalaridan ijobiy foydalanishni o'rgatish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

o'quv dasturlariga raqamli psixologiya yoki sun'iy intellekt haqida dars soatini kiritish;


Al'dan ijobiy foydalanishni o'rgatish uchun treninglar tashkil etish, metodik qo'llanmalar yaratish va ularni keng targ'ibot qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
2. Karimova, V. M. (2020). Raqamli texnologiyalar va shaxs psixologiyasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.



3. Abdurahmonova, S. Sh. (2021). Yoshlarning raqamli madaniyati va axborot muhitida psixologik barqarorlik. Toshkent: Fan va texnologiya.
4. Qodirov, B. (2022). "Sun'iy intellekt va yoshlar ongiga ta'siri." Psixologiya va ijtimoiy fanlar jurnali, №4, 33–41-betlar.
5. Raximova, D. (2023). Onlayn muloqotning psixologik omillari. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Ismoilov, A. (2024). "Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishda shaxsning emotsional barqarorligi." O'zbekiston psixologiya jurnali, №2, 57–64-betlar.
7. Russell, S., & Norvig, P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach. 4th Edition. Pearson Education.
8. Turing, A. M. (1950). "Computing Machinery and Intelligence." Mind, 59(236), 433–460.
9. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). "Siri, Siri, in my hand: Who's the fairest in the land? On the interpretations, illustrations, and implications of artificial intelligence." Business Horizons, 62(1), 15–25.
10. McCarthy, J. (2007). What is Artificial Intelligence? Stanford University.
11. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.
12. Floridi, L. (2020). Ethics of Artificial Intelligence. Oxford University Press.
13. Prensky, M. (2001). "Digital Natives, Digital Immigrants." On the Horizon, 9(5), 1–6.
14. Anderson, M., & Rainie, L. (2022). The Future of AI and Human Well-Being. Pew Research Center Report.
15. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. New York: W. W. Norton & Company.
16. Lin, P. (2016). Robot Ethics 2.0: From Autonomous Cars to Artificial Intelligence. MIT Press.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.